

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI




**QASHQADARYO VILOYATI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT ASOSLARI KAFEDRASI

**PREZIDENT ISLOM KARIMOVNING 2014 YIL 15-16 MAY KUNLARI SAMARQAND SHAHRIDA
O‘TKAZILGAN “O‘RTA ASRLAR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARINING TARIXIY
MEROSI, UNING ZAMONAVIY SIVILIZATSIYA RIVOJIDAGI ROLI VA AHAMIYATI”
MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYADAGI MA’RUZASI ASOSIDA “PREZIDENT
MA’RUZASINI O‘RGANISH” FAKULTATIV O‘QUV KURSI UCHUN TAYYORLANGAN**

O'QUV QO'LLANMA



Tuzuvchilar:

P. Norboʻtayev
M. Abduholiqova

Taqrizchilar:

Oʻqituvchi:

t.f.n., dots.O.Boʻriyev
X. Xoʻjamov

KIRISH

2014 yil 15-16 may kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan "O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy me'rosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati" nomli xalqaro ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tdi

■ **Konferensiyani o'tkazishdan maqsad** - *O'rta asrlarda sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy me'rosini chur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va roliga baho berishdan iborat bo'ldi.*

■ **Konferensiyada** UNESCO, AYSESKO va boshqa nufuzli tashkilotlar rahbarlari va vakillari, dunyoning 40 davlatidan kelgan taniqli olimlar, ilmiy va tadqiqot markazlari, universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari mutaxassisleri ishtirok etdi.

■ **Konferensiya ishtirokchilari** IX-XI va XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyodagi ilmiy, madaniy va ma'naviy yuksalish davrlari, ushbu davrlarda mintaqada yashab ijod etgan alloma va mutafakkirlarning yutuqlari bashariyat sivilizatsiyasi rivojiga be'qiyos hissa qo'shganini, bu yutuqlar jahon ilm - fan jamoatchiligi tomonidan Yevropada uyg'onish davrining shakllanishi va dunyoning boshqa mintaqalari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini qayt etdi

■ **Prezident o'z ma'ruzasida** Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan 23 ta allomalarimiz haqida fikr bildirib, shulardan sakkiztasining ijod va faoliyatiga (Al Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Farobiy, Mirzo Ulug'bek, Mahmud Qashg'ariy, Mahmud Zamaxshariy) alohida to'xtalib o'tdi. Ma'ruzada bugungi kunda buyuk allomalarimizning ijodini o'rgangan 9 ta chet ellik professorlar va mutaxassislarining faoliyati haqida gapirib ularga minnatdorchilik bildirdi.

■ **Yapon professori janob Kato** (Markaziy Osiyo tarixi va etnografiyasini Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur asarlarini o'rganib Yapon tiliga tarjima qilgan), Amerikalik tarixchi Frederik Star (Beruniy faoliyatini o'rgangan), Hindistonlik professor Mansura Haydar xonim (IV-XV asrdagi O'rta Osiyo yozma manbalarini qiyosiy o'rgangan), Inha universiteti prezidenti Pak Chun-Be (Koreyadagi Inha universitetining o'zbekistondagi filialini ochishga xayrixohligi uchun), Qohira universiteti professori Magida Mahluf xonim (Boburnomani arab tiliga tarjima qilgani uchun), Belgiyalik "Luvn katolik universiteti" professori Yul Yanssens (Ibn Sino faoliyatini o'rgangan uchun), Xitoy "Fan va texnologiyalar" universitetining professori Shi Yunli (Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning astronomiya faniga qo'shgan hissasini o'rgangan uchun), Fransiyalik doktor Mark Bonnel (Ibn Sino faoliyatini o'rgangan uchun), Galland olimi Robert Van Gent (Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning astronomiya, kartografiya, va giodeziya fanlariga qo'shgan hissasini o'rgangan uchun)

■ **Ma'ruzada 31 million** O'zbekiston aholisining 60 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qilishi shuning uchun ham asosiy e'tibor yoshlarga qaratilganligi milliy dasturga ko'ra 9+3 sxemasi bo'yicha 12 yillik umumiy majburiy bepul ta'lim joriy etilgani, 10 mingga yaqin maktablarning mavjudligi, 1500 ta kollej va litseylar barpo etilgani, oliy ta'limning ikki bosqichdan (bakalavr, magistratura) iborat ekanligi, Respublika bo'yicha 60 dan ortiq universitet va institutlarda 230 mingdan ortiq

talabalar tahsil olayotganligi oliy ta'limdan keyingi ta'limning bir bosqichli tizimga o'tilgani haqida fikrlar bildirilgan

- **Bundan tashqari chet el oliy o'quv yurtlarining** O'zbekistonda ochilgan filiallari (Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, I.M.Gupkin nomidagi Rossiya neft va gaz universiteti) faoliyatiga ham qisqacha to'xtalib 2014 yilning sentabr oyidan boshlab, Janubiy koreyaning "Inha" universiteti filiali ham faoliyat ko'rsata boshlashi, uning asosiy yo'nalishini axborot kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter muhandisligi sohasidagi ta'lim tashkil etishi haqida fikr bildirildi.

- **Bugungi kunda BMT ma'lumotlariga ko'ra,** mamlakatimizda ta'limga yo'naltirilayotgan harajatlar davlat byudjetining 35 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda. Jahon intellektual mulk tashkiloti va yetakchi xalqaro biznes maktablardan biri – INSEAD tomonidan 2012 yilda inson kapitalining taraqqiyot darajasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston 141 mamlakat orasida 53-o'rinni, ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi, jumladan ta'lim maqsadlari uchun ajratiladigan mablag'lar bo'yicha esa dunyoda 5 o'rinni egallagani bejiz emas.

- **O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining** asarlarini chuqur o'rganish jiddiy va tizimli yondoshuvni talab qiladi. O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining yozma asarlarini kelajak avlod uchun asrab-avaylashni ta'minlash maqsadida konferensiya ishtirokchilari ularning ilmiy asarlari hamda yozma me'rosining to'liq katalogini tayyorlash va nashr qilishni maqsadga muvofiq deb biladi.

- **Mazkur katalogga** O'rta asrlar va zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olimlarning ilmiy asarlari, inson tafakkurining haqiqiy yutuqlari hisoblangan olamshumul kashfiyotlar, shuningdek buyuk mutafakkirlarning keyinchalik amalda dasdiqlangan taxmin va farazlarini kiritish lozim.

- **Konferensiya ishtirokchilari sharq uyg'inish davriga** taalluqli bo'lgan hamda Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti va O'zbekistonning boshqa muassasalarida saqlanayotgan nodir qo'lyozmalar fondidan nusxa olish va ularni raqamlashtirish chora tadbirlarini qo'llab quvvatlaydi, xalqaro hamjamiyatga Sharq va G'arb mamlakatlarning kutubxonalari, fond hamda arxivlarida saqlanayotgan shunday asarlarning asl nusxalaridan nusxa olib, ulardan ilmiy maqsadda foydalanishga ko'maklashishni tavsiya etadi.

- **Konferensiya ishtirokchilari O'rta asrlar sharq buyuk allomalarining** yo'qolgan deb hisoblangan yozma ilmiy me'rosining asl nusxalari va nusxalarini ilmiy nuqtai nazardan izlash ishlarini faollashtirish zarur deb biladi.

- **Shu maqsadda** tadqiqot tashkilotchilari, muzeylar, fondlar va qo'lyozmalar saqlanadigan joylarning faoliyatini birlashtirish, shuningdek muntazam faoliyat ko'rsatadigan xalqaro tadqiqot guruhini tashkil etish zarur. Buyuk mutafakkirlarning o'sha davrada yaratilgan va yo'qolgan deb hisoblangan bebaho asarlarini horijdagi fond va qo'lyozmalar saqlash joylari, boshqa muassasa va shaxsiy kolleksiyalarda tizimli asosda izlashni tashkil qilish ishlarini muvofiqlashtirish, shuningdek kelib tushadigan ma'lumotlarni qayta tiklash hamda ilmiy tadqiqot hamjamiyatiga taqdim etish maqsadida ularga ishlov berish ushbu guruhning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak.

- **Konferansiyada** UNESCO bosh direktori o'rinbosari Xubert Gizen ham o'z ma'ruzasi bilan qatnashdi.

- **To'plamga** chet eldan kelgan jami 47 ta mehmonning konferensiya haqida bildirgan iliq fikrlari ham kiritilgan

**PREZIDENT ISLOM KARIMOVNING 2014 YIL 15-16 MAY KUNLARI SAMARQAND SHAHRIDA
O‘TKAZILGAN “O‘RTA ASRLAR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARINING TARIXIY
MEROSI, UNING ZAMONAVIY SIVILIZATSIYA RIVOJIDAGI ROLI VA AHAMIYATI”
MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYADAGI MA‘RUZASI ASOSIDA “PREZIDENT
MA‘RUZASINI O‘RGANISH” FAKULTATIV O‘QUV KURSI UCHUN TAYYORLANGAN**

O'QUV-MAVZU REJASI

№	Mavzular	Ma'ruza	Seminar	Jami
1	O‘rta asrlarda Sharq olami buyuk alloma va mutafakkirlari ilmiy merosining zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o‘rni	2	-	2
2	O‘rta Osiyolik mutafakkirlar. Ilm-fan ravnaqi	2	-	2
3	Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati jahon ilm-fan taraqqiyotining beshigi	2	-	2
	Jami	6	-	6

**PREZIDENT ISLOM KARIMOVNING 2014 YIL 15-16 MAY KUNLARI SAMARQAND SHAHRIDA
O‘TKAZILGAN “O‘RTA ASRLAR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARINING TARIXIY
MEROSI, UNING ZAMONAVIY SIVILIZATSIYA RIVOJIDAGI ROLI VA AHAMIYATI”
MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYADAGI MA‘RUZASI ASOSIDA “PREZIDENT
MA‘RUZASINI O‘RGANISH” FAKULTATIV O‘QUV KURSI UCHUN TAYYORLANGAN**

O'QUV DASTURI

**1. Mavzu: O‘rta asrlarda Sharq olami buyuk alloma va mutafakkirlari ilmiy
merosining zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o‘rni (2 soat nazariy)**

REJA:

- 1. Madaniy va ma'naviy uyg'onish**
- 2. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va al-Forobiy**
- 3. Turkiy yozma adabiyot**

O‘rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta’lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san’at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, barqarorlikning ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Beruniy dunyo ilm-fanida birinchilardan bo‘lib dengizlar nazariyasi va Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o‘ziga xos yangi g‘oyalarni taklif etdi, Yer radiusini hisoblab chiqdi, vakuum, ya’ni bo‘shliq holatini izohlab berdi, Kolumb sayohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit’a mavjudligi haqidagi qarashni ilgari surdi, minerallar tasnifi va ularning paydo bo‘lish nazariyasini ishlab chiqdi, geodeziya faniga asos soldi.

"Islom olamining eng mashhur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri" degan unvonga sazovor bo‘lgan Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarda alohida g‘urur va ehtirom tuyg‘ularini uyg‘otadi. Ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulug‘ zot o‘z umri davomida 450 dan ortiq asar yaratdi.

X asrning qomusiy allomasi Abu Nasr Forobiyni zamondoshlari, universal bilimlarga ega bo‘lgani bois, "Sharq Aristoteli" deb ataganlar. U ko‘plab fanlarni ilmiy kashfiyotlar bilan boyitdi, turli mamlakatlar olimlarining falsafiy qarashlarini rivojlantirdi va 160 dan ortiq asar yozdi.

2. Mavzu: O‘rta Osiyolik mutafakkirlar. Ilm-fan ravnaqi (2 soat nazariy)

REJA:

- 1. “Bayt ul-hikma”**
- 2. Al- Xorazmiy**
- 3. Ahmad al-Farg‘oniylarning ilmiy merosi**

Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisoli poʻrtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy taʼsir koʻrsatgan Sharq uygʻonish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

Oʻrta asrlarning ilk davrida Sharqda amalga oshirilgan buyuk ilmiy kashfiyotlar haqida gapirar ekanmiz, zamonaviy matematika, trigonometriya va geografiya fanlari taraqqiyotiga beqiyos hissa qoʻshgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nomini birinchilar qatorida tilga olamiz. Al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy maʼlumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u astronomiya, geografiya va iqlim nazariyasi boʻyicha koʻplab ilmiy asarlar muallifidir.

Ahmad Fargʻoniyning amaliy yutuqlaridan biri uning oʻrta asrlardagi asosiy astronomik asbob – usturlob nazariyasini ishlab chiqqani va shuningdek, Nil daryosida "nilomer" degan, koʻp asrlar davomida suv sathini oʻlchaydigan asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan mashhur inshootni yaratgani boʻldi.

3. Mavzu: Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati jahon ilm-fan taraqqiyotining beshigi (2 soat nazariy)

REJA:

- 1. Ilm-fan markazlari**
- 2. Mirzo Ulugʻbek madrasasi va rasadxonasi**
- 3. A. Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur**

Oʻrta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining butun bir avlodi haqida soʻz yuritish ekanmiz, Amir Temur va Temuriylar davri deb nom olgan davr haqida, nomi ilm-maʼrifat osmonida bamisoli yorqin yulduz boʻlib porlab kelayotgan Mirzo Ulugʻbek va uning Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi singari koʻplab safdoshlari va shogirdlari boʻlgan.

Abu Abdulloh Roʻdakiy, Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Saʼdiy, Hofiz SHeroziy, Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa koʻplab buyuk faylasuflar, shoir va maʼrifatparvarlarning ijodiy merosida donishmandlik va borliq olamni gumanistik anglashning juda ulkan, bitmas-tuganmas xazinasi saqlanib kelmoqda. Bu meros haqiqatan ham jahon ahamiyatiga molik bebaho boylik hisoblanadi.

MA’RUZA MATNI

1. Mavzu: O‘rta asrlarda Sharq olami buyuk alloma va mutafakkirlari ilmiy merosining zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o‘rni (2 soat nazariy)

REJA:

1. Madaniy va ma’naviy uyg‘onish
2. al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino
3. Turkiy yozma adabiyot

IX asrning ikkinchi yarmida xalifalik hukmronligi tugab, Somoniylar boshqaruvining qaror topishi bilan madaniy hayotning rivoji uchun keng yo‘l ochiladi. Movarounnahrning madaniy hayotida uyg‘onish davri boshlandi. **Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx, Nishopur** kabi markaziy shaharlarda kutubxonalar, kitob do‘konlari qurilgan. Movarounnahr va Xorazm jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk siymolarni o‘z bag‘rida tarbiyalab kamolotga yetkazdi. **1004-yilda** shakllangan «**Dorul hikma va maorif**» («Bilimdonlik va maorif uyi») – «Ma’mun akademiyasi»ning asosini **Abu Nasr ibn Iroq** (X asr–1034), **Abulxayr ibn Hammor** (991–1048), **Abu Sahl Masihiy** (970–1011), **Abu Rayhon Beruniy** (973–1048), **Abu Ali ibn Sino** (980–1037) va boshqalar tashkil etgan. **1017-yil** Mahmud G‘aznaviy Xorazmga bostirib kirdandan so‘ng «Dorul hikma va maorif»ning faoliyati tugatilgan, olimlarning ko‘pchiligi G‘azna shahriga majburan olib ketilgan. **1997-yil 11-noyabrda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorazm Ma’mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoni chiqdi. **2006-yil kuzida** Respublikamizda «Xorazm Ma’mun akademiyasi»ning 1000 yilligi nishonlandi.

Abu Nasr Farobiy 873-yilda Aris suvining Sirdaryoga quyilishida joylashgan Farob shahrida tug‘ilgan. U avval ona shahrida, so‘ngra Samarqand, Buxoro va Bag‘dodda bilim olgan. Umrining oxirlarida Xalab va Damashq shaharlarida yashagan. Farobiy *riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik, tarbiyashunoslik* va *adabiyot* sohalarida ijod etgan.

U 160 dan ortiq asar yozib, o‘rta asr ilm fan va madaniyatiga ulkan hissa qo‘shdi. Bular orasida «*Arastuning «Metafizika» asariga sharh*», «*Musiqa kitobi*», «*Baxtsaodatga erishuv haqida*», «*Tirik mavjudot a‘zolari haqida*», «*Fozil odamlar shahri*» va boshqa ko‘pgina asarlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Farobiy Sharqda Arastudan (Aristotel) keyingi yirik mutafakkir – «*Muallim us-soniy*» nomi bilan shuhrat topdi.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) Xorazmning Kat shahrida tug‘ilib, Urganchda ta’lim olgan. Xorazmshoh **Abul Abbos Ma’mun II** saroyida to‘plangan olimlar bilan birgalikda Ma’mun akademiyasida ijod qilgan. Xorazm Mahmud G‘aznaviy tomonidan bosib olingach, Beruniy va boshqa olimlar bilan birga G‘azna

shahriga olib ketiladi va umrining oxirigacha shu yerda ijod qildi. Beruniy **1048-yilda Gʻaznada** vafot etadi. Beruniy astronomiya, geografiya, matematika va tarix fanlari boʻyicha 160 dan ortiq asarlar yozgan. Uning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston », «Mineralogiya», «Geodeziya» kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. U oʻzining astronomiyaga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni oʻrta asrlarda birinchi boʻlib ilgari surdi. Beruniy yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U 1029 ta yulduzning koordinatlari kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini hamda dunyoning geografik kartasini tuzgan. Beruniyning ilmiy va falsafiy ulkan merosi shubhasiz jahon fani va madaniyati xazinasiga qoʻshilgan ulkan hissa boʻldi. Qoraqalpogʻistonda shahar, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Toshkent Davlat Texnika universiteti Beruniy nomiga qoʻyilgan. Beruniy nomidagi Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mukofoti taʼsis etilgan.

Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro yaqinidagi **Afshona** qishlogʻida mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. Maktabni bitirgach, ustozi Abu Abdullohdan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini oʻrganadi. Oʻn olti yoshidan boshlab turli fanlar boʻyicha Sharq va Gʻarb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil oʻrgandi. Ayniqsa, u tabobat ilmining qadimgi allomalari **Gippokrat** va **Galen** hamda oʻrta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri **Abu Bakr ar-Roziyning** (865–925) asarlarini puxta oʻrganadi. **Ibn Sino** oʻn yetti yoshidayoq eʼtiborli hakim va olim boʻlib yetishadi. U amir Nuh ibn Mansurni davolab tuzatgach, somoniylarning saroy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi. Ibn Sino taqdir hukmi bilan Gurganchdagi (Urganch) Xorazm Maʼmun akademiyasi olimlari qatorida ijod qiladi. U **1037-yilda** vafot etadi va **Hamadonda** dafn etiladi. **Ibn Sino** 450 dan ortiq, shu jumladan, tibbiyotga doir 43 ta asar yozgan. Uning 5 jildlik «*Al-qonun fit-tib*» nomli qomusiy asarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, tashxis, muolaja usullari, dorivor oʻsimliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning gʻoyat muhim masalalariga alohida eʼtibor berilgan. Uning «*Al-qonun fit-tib*» asari XII asrdayoq *lotinchaga* tarjima qilinib, to **XVII asrgacha** Yevropa tabobatida asosiy qoʻllanma sifatida foydalanilgan.

2. Mavzu: Oʻrta Osiyolik mutafakkirlar. Ilm-fan ravnaqi (2 soat nazariy)

REJA:

1. “Bayt ul-hikma”

2. Al- Xorazmiy

3. Ahmad al-Fargʻoniyning ilmiy merosi

IX–XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir boʻlgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, oʻzgarishlar mamlakat madaniy hayotiga ham kuchli taʼsir etdi. Movarounnahr arablar tomonidan istilo qilingach, zabt etilgan oʻzga mamlakatlar qatorida, bu oʻlkada ham faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki arab tili xalifalikning ham davlat tili, ham fan tili edi. Shu boisdan arab tilining oʻrni va ahamiyati oshib, uni oʻzlashtirishga boʻlgan intilish kuchaydi. Arab tili va yozuvini yaxshi oʻzlashtirib olgan

bilimdonlar paydo bo'ldi. Bag'dod shahri Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi edi. IX asrda bu shaharda «**Bayt ul-hikma**» tashkil etilgan edi. «Bayt ul-hikma»da katta kutubxona, Bag'dod va Damashqda astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud edi. Bu ilm dargohiga jalb etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bilan bir qatorda qadimgi yunon va hind olimlarining ilmiy merosini o'rganish va asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanardilar. **Al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Ahmad al-Marvaziy, al-Abbos Javhariy va Yahyo bin Abu Mansur** kabi Movarounnahr va xurosonlik olimlar ijod qilib, o'rta asr ilm-u faniga katta hissa qo'shadi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783–850-yillarda yashab ijod qilgan) Xorazm diyorida tug'ilib, voyaga yetadi. Dastlabki savod va turli sohadagi bilimlarini u o'z ona yurti Xorazm va Movarounnahr shaharlarida ko'pgina ustozlardan oladi. So'ngra u xalifa Ma'mun zamonida (813–833) «Bayt ulhikma»da mudir sifatida faoliyat ko'rsatadi. Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qo'shdi. Al-Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozdi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Matematikaga doir asarlari «**Al-jabr val-muqobala**», «**Hind hisobi haqida**»; geografiyaga 72 oid kitoblari «**Kitob surat ul-arz**» («Yer surati»); astronomiyaga oid asarlari «*Zij*» va «*Usturlub bilan ishlash haqida kitob*»; tarixga oid asarlari «*Kitob at-tarix*», «*Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola*» nomlari bilan atalgan. Hatto «*algebra*» atamasi ushbu kitobning «*al-jabr*» deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematika fanida «*algoritim*» atamasi **Al-Xorazmiy** shaklida o'z ifodasini topdi. Uning «*Aljabr*» asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik hisoblash tizimining Yevropada, qolaversa, butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Shunday qilib, vatandoshimiz Xorazmiy al-jabrni mustaqil fan darajasiga ko'tarib, algebra faniga asos soldi va tarixda o'zidan o'chmas iz qoldirdi.

«Bayt ul-hikma»da faoliyat ko'rsatgan olimlardan yana biri buyuk astronom, matematik va geograf **Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oni** (797–865-yillarda yashab ijod qilgan). U Farg'ona vodiysidagi Quva shahrida tavallud topgani uchun Sharqda *Al-Farg'oni*, Yevropada esa *Alfraganus* taxallusi bilan shuhrat topgan. U astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shug'ullandi. Qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnini aniqlash, yangicha zij (astronomik jadval) yaratish ishlariga rahbarlik qildi. **832–833-yillarda** Suriyaning shimolida Sinjor dashtida va ar-Raqqa oralig'ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lchashda qatnashdi. **861-yilda** al-Farg'oni rahbarligida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr – daryo oqimi sathini belgilaydigan «*Miqyos an-Nil*» inshooti va uning darajoti qayta tiklandi. Bizning davrimizgacha Ahmad Farg'oniyning sakkiz asari saqlangan bo'lib, ular orasida «*Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum*» kitobi ham bordir. Bu kitob XII asrdayoq lotin va ibroniy tillariga tarjima qilinib, nafaqat musulmon Sharqidagi, balki Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Yevropada mashhur

bo'lgan alloma nomi XVI asrda Oydagi kraterlardan biriga berilgan. Mustaqillik yillarida Ahmad al-Farg'oniyning noyob ilmiy merosi xalqimizga qaytarildi. **1998-yil oktabr**da alloma Ahmad al-Farg'oniylarning tavalludining 1200 yilligi nishonlandi.

3. Mavzu: Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati jahon ilm-fan taraqqiyotining beshigi (2 soat nazariy)

REJA:

1. Ilm-fan markazlari

2. Mirzo Ulug'bek madrasasi va rasadxonasi

3. A. Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur

XV asrda Samarqand va Hirotida olimlar- u fuzalolar, shoirlar-u bastakorlarning kattagina guruhi to'plangan edi. Ilm-fan va san'atning taraqqiyotida zamonasining madaniy muhitida tarbiyalanib, yoshligidayoq mashhur olim sifatida shuhrat qozongan Ulug'bekning hissasi nihoyatda buyukdir. Ulug'bek mamlakatni boshqarish bilan bir qatorda, ilmiy ishlar bilan shug'ullanadi, olimlarning munozaralarida faol qatnashadi. Ulug'bek o'tmishdoshlari Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino asarlarini batafsil o'rganadi. Bu buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali u qadimgi yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolomeylarning mumtoz asarlari bilan ham tanishadi. Ulug'bek farmoni bilan **1417-yilda** Buxoroda, **1420-yilda** Samarqandda, **1433-yilda** G'ijduvonda madrasalar qad ko'taradi. Hatto Buxoro madrasasining darvozasiga *«Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir»*, degan xitobnoma o'yib yozib qo'yiladi. Movarounnahrning bu uchta qadimiy shaharlarida barpo etilgan ilmgohlar, xususan, Samarqand madrasasi zamonasining dorilfununi edi. Ushbu madrasalarda diniy ilmlar: Qur'on, hadis, tafsir, fiqh (din va shariat qonun va qoidalari) bilan bir qatorda riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), ilmi hay'at (astronomiya), tibbiyot (meditsina), tarix, jo'g'rofiya, ilmi aruz (nazm), arab tili va uning morfologiyasi (qofiya) kabi dunyoviy ilmlar ham o'qitilardi.

Ulug'bek madrasasi **1420-yilda** ochilgan Samarqand madrasasi ikki qavatli, ellik hujrali bo'lgan. Har bir hujra uch xonaga: qaznoq (omborxona), yotoqxona va darsxonalarga bo'lingan. Madrasada o'sha zamonning iqtidorli olimlaridan mavlono **Shamsiddin Muhammad Havofiy** yetakchi mudarris bo'lgan. O'rta asrlarning mashhur olimlari **Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, Mirzo Ulug'bek** va uning shogirdi **Alouddin Ali Qushchilar** turli fanlardan dars berganlar. Madrasa ochilgan kuni birinchi darsni **Shamsiddin Muhammad Havofiy** o'qigan, darsda tolibi ilmlardan to'qson nafari qatnashgan. Madrasada ilmi hay'at (astronomiya)dan darsni Qozizoda Rumiy bergan. Madrasada kamida 15–16 yil tahsil ko'rib, uning dasturi bo'yicha fanlarni to'la o'zlashtirgan va imtihonlarda o'z bilimini namoyish qila olgan tolibi ilmlarga **sanad** yozib berilgan.

Ulug'bek rasadxonasi Samarqandda o'z atrofida to'plangan taniqli olimlarning bevosita ishtiroki va yordamida Mirzo Ulug'bek **1424–1429- Ulug'bek rasadxonasining ichki ko'rinishi. yillarda** shahar yaqinidagi Obirahmat anhuri

bo'yida rasadxona qurirdi. Hanuzgacha olimlarning qiziqishini uyg'otib kelayotgan bu ulkan imoratning balandligi 31 metr edi. G'iyosiddin Jamshid boshchiligida rasadxonaning asosiy o'lchov asbob-uskunasi – ulkan sekstant o'rnatilgan. Samarqand sekstanti o'sha davrda Sharqda ma'lum bo'lgan sekstantlarning eng kattasi hisoblangan. Ulug'bek rasadxona qoshida zamonasining boy ku148 tubxonasini ham tashkil etadi. Bu kutubxonada fanning deyarli hamma sohalariga tegishli qariyb o'n besh ming jild kitob saqlangan. Rasadxona tevaragida olimlar va xizmatchilar uchun kattakichik hujralar quriladi. Uning etagida esa ikkita chorbog' barpo etiladi. Ulardan biri **Bog'i Maydon**, ikkinchisi esa **Chinnixona** nomi bilan shuhrat topadi. Rasadxona joylashgan bu mavze mahalliy aholi o'rtasida «**Naqshi jahon**» degan nom bilan shuhrat qozongan. Ulug'bekning faol ishtiroki bilan Ulug'bek rasadxonasi o'sha zamon sharoitiga mukammal astronomik asbob va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgohga aylanadi. Rasadxonada Ulug'bek bilan birga mashhur matematik va astronom lardan «*Aflotuni zamon*» deb nom olgan **Qozizoda Rumi**, **G'iyosiddin Jamshid Koshoniy**, «*o'z davrining Ptolomeyi*» nomi bilan shuhrat qozongan **Ali Qushchi** va ko'pgina boshqa olimlar ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar olib boradilar. Xullas, Ulug'bek Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratdi. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 ta qo'zg'almas (turg'un) yulduzlarning o'rne va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijalari asosida matematika va astronomiyaga oid qator nodir asarlar yaratildi. Ulug'bekning shoh asari «*Ziji jadidi Ko'ragoniy*» (Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali) nomli kitobidir. «*Ziji jadidi Ko'ragoniy*» asosan ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 qo'zg'almas yulduzlarning o'rne va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat. Ulug'bekning astronomik jadvali o'sha zamondagi shunga o'xshash jadvallar orasida yuksak darajada aniqligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Ulug'bekning yil hisobini hozirgi hisob-kitoblarga solishtirgudek bo'lsak, u bor-yo'g'i bir minut-u ikki sekundga farq qiladi. Bu XV asr uchun g'oyat yuksak aniqlik bo'lib, hozirgi zamon o'lchovlariga juda yaqindir. Ulug'bek «*Tarixi arba' ulus*» (To'rt ulus tarixi) nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag'ishlangan beshta risola ham yozgan.

O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti badiiy uslub jihatidan takomillashdi, yangi pog'onaga ko'tarildi. Nasrda ham, nazmda ham ko'plab nodir badiiy va lirik asarlar yaratildi. O'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek hamda tojik adabiyoti o'rtasida o'zaro aloqa va hamkorlik kengaydi va mustahkamlandi. Tarjima adabiyot vujudga keldi. Badiiy adabiyotning ravnaqi bilan uzviy bog'langan holda adabiyotshunoslik ham taraqqiy etdi, nodir asarlar yaratildi. Bu davrda zamonasining iste'dodli shoirlari va adiblari **Qutb Xorazmiy**, **Sayfi Saroyi**, **Haydar Xorazmiy**, **Durbek**, **Amiriy**, **Yaqiniy**, **Atoiy**, **Sakkokiy**, **Lutfiy**, **Muhammad Solih** va boshqalar yashab ijod qiladilar. **Durbek** tomonidan qayta ishlangan «*Yusuf va Zulayho*» dostoni, toshkentlik shoir Atoiyning devoni shu davr badiiy adabiyotining durdonalaridir. Bu davr o'zbek shoirlari ichida **Lutfiy** (1366–1465) alohida o'rin tutadi. Navoiyga qadar o'zbek she'riyatida Lutfiy darajasiga yetadigan shoir bo'lmagan. U birgina turkiy tilida asarlar yaratib qolmadi, balki fors tilida ham qasidalar yozdi. Lutfiy ijodida haqiqat va adolatni sevish, shafqat va muruvvatli bo'lishni targ'ib qilish, ilm va san'atni sevish kabi fikrlar katta joy olgan.

XV asr badiiy adabiyoti ravnaqida buyuk davlat arbobi, ulug' shoir, olim, mutafakkir **Alisher Navoiy** va buyuk fors-tojik shoiri **Abdurahmon Jomiy**ning hissalarini g'oyat buyukdir. Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o'zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi. U o'zbek adabiy tili, o'zbek mumtoz adabiyotini yangi pog'onaga ko'tardi. Navoiy o'ttizdan ortiq yirik badiiy asar yozdi. «*Xamsa*», «*Xazoyin ul-maoniy*», «*Mahbub ulqulub*», «*Lison ut-tayr*» shular jumlasidandir.

Navoiy tarixni bilishning ahamiyati katta ekanini ta'kidlab, odamlarni tarixni o'rganishga da'vat etadi. Uning fikricha, tarix fani shohlar, hukmdorlarning tarjimaiy holini emas, balki mamlakat tarixini o'rganishi kerak. Navoiy mamlakatni nimalar tanazzulga va nimalar farovonlikka olib kelishini, qanday ishlar tufayli mamlakat obod bo'lishini, xalqqa farog'at va baxt keltirishini tarix ko'rsatib berishi lozim, deb hisoblaydi. Navoiy adolat yordamida mamlakatni obod qilish mumkinligini, har bir kishi o'zining xulqi va odobi bilan odamlarni xursand qilishi lozimligini uqtirib o'tadi.

Zahiriddin Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, shoir, bastakor, ayni paytda, yirik tarixchi olim hamdir. Uning nomini abadiylikka muhrlagan asar „Boburnoma“dir. Bu asar — Movarounnahr, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi haqida juda qimmatli ma'lumotlar beradi.

Bu xotira asarlar sirasiga kiradi. Asar 1493 — 1529-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida yilma-yil hikoya qiladi. Asarda b a 'zi temuriyzoda hukmdorlarning birgalashib umumiy dushmanga qarshi kurashish o'miga o'z dushmanlari bilan o 'z manfaatlari yo'lida (Vatan manfaati yo'lida emas) kelishishga qilgan harakatlari tanqid qilinadi. Bobur o'z kitobida Hindiston haqida, jumladan, quyidagilarni yozib qoldirgan: „Hindiston... bizning viloyatlardan o'zgacha olamdir. Tog' va daryosi, jangal va sahrosi, hayvonot va nabototi, eli va tili, yomg'iri va yeli — barchasi o'zgachadir... Hindistonning aksari viloyatining tuz yerdan bo'libtur... Hindistonning bir ulug' aybi budurkim, oqar suvi yo'qtur...“ Boburning adabiy-badiiy faoliyatida nozik link she'rlar katta o'rin tutadi. Ularda insoniylik, mehr-muruwat g'oyalari ilgari suriladi. Uning „Mubayyin“ asarida o'sha zamon soliq tizimi, soliq yig'ishning qonun-qoidalarini bayon etilgan. O 'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan 1993-yilda Bobur tavalludinini 510 yilligi keng miqyosda nishonlandi. Boburning buyuk xotirasini ulug'lash yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, Andijonda Bobur haykali o'rnatildi, ramziy qabr maqbarasi qurildi. „Bobur milliy bog'i“ va shu bog' qoshida „Bobur va jahon adabiyoti“ nomli muzey tashkil etildi.

Shu o'rinda yurtboshimizning quyidagi so'zlari bilan xulosa qiladigan bo'lsak, ...bilasizmi, men ba'zan o'ylab qolaman, dunyoda fanlar ko'p, ilf-fanning ajoyib yutuqlarini barcha sohalarida ko'rish mumkin. Men bunday mashaqqatli mehnatdan doimo hayratga tushaman. Bizning xalqimizda "Ilm bilan shug'ullanish – iqna bilan quduq qazish bilan barobar" degan maqol bor. Ana shu iqna bilan quduq qaziyotganlar bor bo'lsin! Ular qo'lyozmalar ustida 10-20 yillab va hatto umrbod ishlayotgan insonlardir. Bunday sabr-toqat bilan mehnat qilayotgan insonlar qalbida buyuk daholar merosini butun dunyoqa namoyon etish istaqi shunchalik kuchliki, hech shubhasiz, bunday daholarsiz insoniyat ravnaq topa olmaydi.

X U L O S A

Har bir o'qituvchi va ma'ruzachi Prezident Islom Karimovning 2014 yil 15-16 may kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan "O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi ma'ruzasi mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi ushbu qo'llanma materiallaridan foydalangan holda mahallalar, tumanlar, viloyat misolida keng ommaga tushuntirib berishi, mavzuni yoritishda zamonaviy ko'rgazmali vositalardan, ma'ruzaning elektron variantidan foydalanishi tavsiya etiladi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 15-16 may kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi ma'ruzasi mazmun-mohiyatini har bir ta'lim muassasasi, ishlab chiqarish korxonasi va mahallalarda o'rganilishi keng yo'lga qo'yilishi;

- O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosini omma ongiga singdirish uchun seminar va anjumanlar tashkil etilishi;

- O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy yodgorliklari, hiyobonlar, ta'mirlangan madaniy obidalar bilan tanishish uchun sayohatlar tashkil etilishi;

- O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosini aks ettiruvchi ko'rgazmalar, plakatlar bilan jihozlanishi;

- 3-8 sinflarda jumladan, 3-sinf "Odobnoma" fanining "O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat" (1-3 dars), "Ona yurti – oltin beshig" (4-6 dars) kabi mavzularga;

- 6-sinf "Vatan tuyg'usi" fanining "Mustaqillik – ma'naviy tiklanish va yuksalish" (1-2-dars), "Ma'rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir" (16-18-dars), "Buyuklik timsoli" (19-20-dars), "Shoirlarning sultoni – Alisher Navoiy" (21-dars) kabi mavzularni o'tishda;

- 7-sinf "O'zbekiston tarixi" fanining "O'rta Osiyolik mutafakkirlar. Ilm-fan ravnaqi" (24-25-dars), "Movaraunnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davr (IX-XII asr boshlari)" (26-dars), "Ulug'bek – ma'rifatparvar davlat arbobi" (44-dars), "Ilm-fan ravnaqi" (48-dars), "Madaniy hayot" (49-dars) mavzularida;

- 5-sinf Adabiyot fanidan "A. Navoiy. "Hayrat ul-abror" dostonidan" (66-69 dars), "Bobur ruboiylari. Nazariy ta'limot. Ruboiy" (70-71-dars), 8-sinf "M.Shayxzoda. "Mirzo Ulug'bek" fojiasi (32-dars), 9-sinf "Zahiriddin Muhammad Bobur. Lirikalar" (23-25-dars) mavzularida;

- 5-sinf matematika fanidan "Al-Xorazmiyning "Algorizmi hind hisobi haqida" (38-dars), "O'rta arifmetik" (131-134-dars), 7-sinfda "Algebraik ifodalar" (5-6-dars), "Algebraik tengliklar. Formulalar" (7-8-dars), "Arifmetik amallarning xossalari" (9-10-dars) mavzularida;

- 7-sinf ximiya fanidan “Kimyo fanining predmeti va vazifalari. Uning fan sifatida shakllanish tarixi” (1-dars), “O‘zbekistondagi kimyogar olimlarning kimyo faniga qo‘shgan hissalar” (2-dars) mavzularida;

- 6-sinf fizika fanidan “Jamiyat rivojlanishida fizikaning ahamiyati. O‘zbekistonda fizika taraqqiyoti” (2-dars), “Jismlarning mexanik harakati. Troyektoriya” (9-dars), 7-sinfda “Notekis harakatda tezlik” (10-dars), “Tekis o‘zgaruvchan harakatda bosib o‘tilgan yo‘l” (11-dars), 8-sinfda “Elektrostansiyalar” (60-dars), “Elektr energiyasini o‘zatish” (68-dars), 9-sinfda “Geliotexnika. O‘zbekistonda Quyosh energiyasidan foydalanish va uning istiqbollari” (44-dars), “Yadro energiyasi haqida tushunchalar” (49-dars), “Yadro energiyasidan foydalanish. O‘zbekistonda yadro fizikasi taraqqiyoti” (50-dars), “Fizika va texnika taraqqiyoti. O‘zbekistonda fizika sohasidagi tadqiqotlar” (64-dars) mavzularida;

- 8-sinf iqtisodiy bilim asoslari fanidan “Ishlab chiqarish va uning omillari” (4-dars), “Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv” (5-dars) mavzularida;

- ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘tiladigan mavzular mazmuniga mustaqillik yillarida mamlakatda, viloyatda, tumanlar miqyosida amalga oshirilgan ishlar hayotiy misollar asosida singdirib borilishi;

- ma’ruzachi tinglovchilarning mutaxassisligini e’tiborga olgan holda, qo‘llanmada keltirilgan ma’lumotlarning ularga aloqador qismini kengroq mazmunda yoritishi;

- **“Mustaqillik darsi”** ni o‘tuvchi o‘qituvchi darsni o‘tishda har bir sinf o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malaka darajasidan kelib chiqqan holda, qo‘llanmada keltirilgan ma’lumotlardan foydalanishi lozim bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., O‘zbekiston, 2010.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. –T.: O‘zbekiston, 1996.
3. Karimov.I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.:O‘zbekiston, 1996.
4. Karimov.I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O‘zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. T.4. – T.: O‘zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – T.:O‘zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.6. – T.: O‘zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O‘zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: O‘zbekiston, 2000.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T.9. – T.:O‘zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: O‘zbekiston, 2002.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.11. – T.: O‘zbekiston, 2003.
13. Karimov I.A Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T.12. – T.: O‘zbekiston, 2004.
14. Karimov I.A O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T.13. – T.: O‘zbekiston, 2005.
15. Karimov I.A Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. – T.: O‘zbekiston, 2006.
16. Karimov I.A Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezonini va maqsadidir. T.15. – T.: O‘zbekiston, 2007.
17. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. T. 16. – T.: O‘zbekiston, 2008
18. Karimov I.A Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash-bizning oliy maqsadimiz. T. 17, – T.: O‘zbekiston, 2009.
19. Karimov I.A. Jahon iqtisodiy inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarilish sari. T. 18. – T.:O‘zbekiston, 2010.
20. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy poydevoridir. T. 19. – T.: O‘zbekiston, 2011.
21. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

22. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., O'zbekiston, 2011.
23. Prezident Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi yig'ilishdagi ma'ruzasi. T.: "O'zbekiston", 2010 yil 20 sentabr.
24. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi (Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 2010 yil 12 – noyabr
25. Qashqadaryo: Istiqbol sari odimlar. – T.: Ma'naviyat, 2006.
26. Qashqadaryo viloyati istiqbol yillarida. – T.: Ma'naviyat, 2007.
27. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
28. Istiqbol poydevori. – T.: Ma'naviyat, 2011.
29. 2012 yilda Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi) "Xalq so'zi", 2012 yil, 20 yanvar
30. Inson manfaati, xuquq va erkinliklarini ta'minlash hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish - bizning bosh maqsadimizdir. (Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligi munosabati bilan so'zlagan ma'ruzasi) "Xalq so'zi", 2012 yil 8 - dekabr.
31. Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi) "Ma'rifat", 2013 yil, 19 - yanvar.
32. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining yigirma ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" gi qarori. "Xalq so'zi", 2013 yil 13 – iyun.
33. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. (Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi) "Xalq so'zi", 2013 yil 7 - dekabr
34. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yilning asosiy yakunlari va 2014 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi) - "Xalq so'zi", 2014 yil, 18 - yanvar.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
O‘rta asrlarda Sharq olami buyuk alloma va mutafakkirlari ilmiy merosining zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o‘rni.....	8-9
O‘rta Osiyolik mutafakkirlar. Ilm-fan ravnaqi.....	9-10
Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati jahon ilm-fan taraqqiyotining beshigi.....	11-13
Xulosa.....	14-15
Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yixati.....	16-17

